



## SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA SO'ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Saida Maksumova**

*O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya:** Bu maqolada shakl va ma'no munosabatiga ko'ra guruhlanuvchi so'zlar, ya'ni sinonim, omonim, antonim va paronimlarning badiiy matnda uslubiy vazifa bajarishi haqida yozilgan. Badiiy asardagi misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** sinonim, omonim, antonim, paronim, frazeologik ma'nodoshlik, progressiv va regressiv gradatsiya, dominanta, kontekstual antonim, oksyumoron, paronomaziya.

**Annotation:** This article examines the stylistic functions of words classified according to the relationship between their form and meaning — specifically, synonyms, homonyms, antonyms, and paronyms — in literary texts. The analysis is carried out on the basis of examples drawn from works of fiction, highlighting how these lexical relations contribute to the expressive and aesthetic qualities of the text.

**Key words:** synonym, homonym, antonym, paronym, phraseological synonymy, progressive and regressive gradation, dominant, contextual antonym, oxymoron, paronomasia.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается стилистическая функция слов, группируемых по отношению формы и значения, а именно синонимов, омонимов, антонимов и паронимов в художественном тексте. Проанализировано на основе примеров из художественного произведения.

**Ключевые слова:** синоним, омоним, антоним, пароним, фразеологическая синонимия, прогрессивная и регрессивная градация, доминанта, контекстуальный антоним, оксюморон, парномазия.

**Kirish.** Ma'lumki, yozuvchi va shoirlar o'z asari bilan kitobxonga ma'naviy ozuqa berish bilan birga, tilning boy imkoniyatlarini namoyon etish mas'uliyatini ham his etib ijod qiladilar. Bunda ular so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, ya'ni sinonimlar, omonimlar, antonimlar va paronimlardan unumli foydalanadilar. Bunday so'zlar badiiy matnda ma'lum ma'noda uslubiy bazifa bajaradi.

**Sinonim (ma'nodosh)** so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda



foydalaniladi. Ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Zebixon bilan kelgan boshqa qizlar ham bir-biridan yaxshi, bir-biridan soz, bir-biridan ochiq, bir-biridan quvnoq...*(Cho'lpon) Salbiy belgining kuchayib borishini ifodalash uchun:

*Men cho'chidim afti bir xunuk*

*Basharasi to'la chandiq qora plashda.*

*Turqi sovuq ko'rinadi juda qo'rqaman,*

*Kim biladi bu inson kim, murodi nima?* (E.Vohidov)

Mazkur she'riy parchada yuz so'zining sinonimlari: aft, bashara, turq so'zlari ketma-ket qo'llangan. Ma'lumki, aft, bashara so'zlari asosan kishining tashqi qiyofasini ifodalash uchun qo'llanilib, bu o'rinda ham qahramonning tashqi ko'rinishi aftining xunukligi, basharasining chandiqlarga to'laligini tasvirlashga xizmat qilgan. Uchinchi misrada esa turq so'zi tashqi ko'rinish ma'nosidan uzoqlashgan, bu so'zda "avzo, vajohat" ma'nolari birlamchi o'ringa chiqqan. Shoir bu o'rinda qahramon xarakter-xususiyatini ochib berish maqsadida turqi sovuq birikmasini qo'llagan. Ushbu she'riy parchada nutq subyektining qahramonga bo'lgan salbiy bahosi – nafratlanishi, jirkanishi, g'azablanishi kabilar shu birikmaning pragmatik ma'nosi sifatida yuzaga chiqqan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy tilshunoslikning leksik-semantik va stilistik tamoyillariga tayandi. Tahlil jarayonida asosiy ilmiy manbalar deskriptiv, kontekstual va struktur-semantik metodlar orqali o'rganildi. Matnlardagi sinonim, antonim, omonim va paronim birliklarning ma'no munosabati hamda uslubiy vazifasi kontekst asosida aniqlanib, qiyosiy va pragmatik yondashuvlar yordamida umumlashtirilgan ilmiy xulosalar chiqarildi.

**Tahlil va natijalar.** Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. *Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq* kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. "Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi".[9-144] Masalan: *Xursand – og'zi qulog'ida, g'azablanmoq - jahli chiqmoq, beg'am – dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi* kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi: *Qurvon bibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi.* (Cho'lpon)



Mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi.[7-52] Masalan: *Kechagina qarg'ab, so'kib, "o'ldirsam!" deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi "qalin do'st" bo'lgan emishlar.* (Cho'lpon)

A.Abdullayev sinonim so'zlarning xususiyati to'g'risida fikr bildirar ekan, quyidagilarni bayon qiladi: "Sinonimlarning muhim xususiyatlaridan biri belgini darajalab ko'rsata olishdir. Ular mana shu xususiyati bilan o'ziga xos gradatsiya hosil qiladi".[1-35] Olim gradatsiyani shartli ravishda ikki turga ajratadi: *progressiv va regressiv gradatsiya*. Ma'lumki, gradatsiya sinonimik qatorning dominantasi asosida belgilanadi. Agar sinonim so'zlarning belgi darajasi dominant so'zning belgi darajasiga nisbatan izchillik bilan rivojlanib borsa, progressiv gradatsiya, aksincha, dominant so'zga nisbatan belgi darajasining izchilligi pasayib borsa, regressiv gradatsiya sanaladi. Gradatsiya hodisasi ayni shu xususiyati orqali nutqda konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi unumli usullardan hisoblanadi.

Masalan, o'zbek tilida *ayriliq, judolik va hajr* so'zlari sinonim so'zlar bo'lib, "yaqin kishilardan ajralish" lug'aviy ma'nosini ifodalaydi. Ayni shu ma'no har bir so'zda turli xil darajada aks etadi. Yoki *tinch, sokin, sukunat, osuda* kabi sinonim so'zlar ham o'zaro gradatsion munosabatda bo'lib, tinch dominantasiga nisbatan keyingi so'zlarda "bezovta qilinadigan narsalardan xolilik"[4-255] ma'nosi kuchli ifodalangan.

Ma'lumki, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo atash ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar **shakldosh** so'zlardir. Tilshunoslikda shakldoshlikning quyidagi turlari mavjud: 1) leksik shakldoshlik; 2) frazeologik shakldoshlik; 3) leksik-frazeologik shakldoshlik; 4) sintaktik shakldoshlik. Leksik shakldoshlik bu so'zlar orasidagi shakldoshlikdir. Masalan, uch-son, uch-harakat. Shakldoshlik uch so'z turkumi doirasida ham bo'lishi mumkin: *oshiq-ot, oshiq-fe'l, oshiq-sifat*. Shoirlar tuyuq janrida leksik omonimlardan keng foydalanishgan.

*Olmani sundi nigorim-ol!- dedi,*

*Olma birla bu ko'ngilni -ol!-dedi.*

*So'rdim ersa, olmasining rangini,*

*Ne so'rarsan?- olma rangi - ol dedi.* (A.Navoiy)

Bu tuyuqda ol so'zi uch ma'noda ishlatilgan:

- 1) buyruq fe'li; 2) ko'ngil ovlamoq; 3) qizil rang.

Frazeologik shakldoshlik deganda shakli bir xil iboralarning har xil ma'no ifodalashi. Masalan: *Boshiga ko'tarmoq – hurmat qilmoq; boshiga ko'tarmoq-*



*shovqin solmoq, ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, ko'z yummoq-vafot etmoq; ko'z yummoq-e'tibor bermaslik.*

Sintaktik shakldoshlik, so'z birikmalari va gaplar orasidagi shakldoshlik. Masalan, *oyog'ini tirab turmoq, o'z yog'iga o'zi qovurilmoq. Nargiza yolg'ondan hayron bo'ldi.* Bu birikmalarni ikki xil ma'noda tushunish mumkin. Sintaktik omonimiya nutq bosqichiga xos xususiyat bo'lib, so'z shakllari, birikmalar va gaplar orasida yuz beradi. Sintaktik omonimiyada ifodaning, avvalo shakl tomoniga, so'ngra mazmun tomoniga e'tibor beriladi. Shakllari bir xil, ammo mazmuni turlicha bo'lgan so'z birikmalari va gaplardan badiiy tasvirda so'z o'yinlari, askiya ba'zan kulgi yaratish uchun yaratiladi.

- *Afandi bugun sira og'zingizni ochmadingiz, - dedi suhbatdoshlaridan biri.*

- *Esnayverib, og'zim ochilib uning yirtilishiga oz qoldi-ku, -dedi afandi.(Afandi latifalaridan)*

Berilgan parchada erkin so'z birikmasi bilan turg'un so'z birikmasi omonimlikni paydo qilib, ta'sirchanlikni kuchli ifodalagan: Og'zi katta a) og'zining hajmi katta; b) maqtanchoq frazeologik ibora bo'lib ta'sirchanlik ifodalangan.

Tilda zid ma'noli **antonim** so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Yevropa filologik an'anasida bu san'at "antiteza" deb yuritiladi. Antonimiya antitezaning tarkibiga kiradi, lekin bu ikki hodisani o'zaro tenglashtirib qo'yish mumkin emas.[3-22] Badiiy asar tiliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Masalan: *Shuncha yer qo'ldan chiqqan bo'lsa, uning baravariga qancha davlat qo'lga kirgandir, muni xudo biladi-yu xudoning sevimli bandasi qorako'z Miryoqub biladi!.* (Cho'lpon)

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan: *"Zelixon Elchidan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi.U mushtdek yurakni qoyadek dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch to'playotgan ekan..."* (T.Malik) Bu nutqiy parchada mushtdek va qoyadek so'zlari "kichik" va "katta" ma'nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan. Maqol va matallarda: *Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda. Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod. Osmon yiroq – yer qattiq. Hikmatli so'zlarda: Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim, orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.* (A.Navoiy)



Zidlash munosabatini ifodalashning ko‘rinishlaridan yana biri **oksyumorondir**. [10-72] Kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo‘lmagan zid belgini unga nisbatan qo‘llash orqali antonimik munosabat hosil qilish oksyumoron deyiladi. Bu stilistik holatda to‘g‘ri ma‘nolari bilan mantiqiy jihatdan muvofiq kelmaydigan so‘zlar bir-biri bilan uchrashadi, natijada bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan ko‘chma ma‘nodagi birikma hosil bo‘ladi. Asosan, sifat+ot ko‘rinishidagi birikmalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, *aqlli tentak, shirin tashvish, qora quyosh, shirin dard*.

Shoir yoki yozuvchilar o‘z maqsadini ifodalashda bir qaraganda, leksemalarning bir-biri bilan bog‘lanishi mantiqsizdek tuyulgan hodisa-ga badiiy estetik jihatdan yondashadi, natilada oksyumoron yuzaga keladi. Masalan,

*Shirin azob ekan, jonni // Yoqmoq ekan.*

*Siz shirin dardimsiz // Shirin azobim* (Muhammad Yusuf)

*Tanizorim igna uchinda*

*Ko‘zlarimda qora nur* (Rauf Parpi)

**Xulosa.** Paronimlar deb fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o‘xshash, yaqin bo‘lib qolgan so‘zlarga aytiladi. *Abzal (asli afzor-asbob, egar-jabduq) – afzal (fazl so‘zining orttirma darajasi), xalos (ozod bo‘lish) – xolos (faqat), xush (yaxshi, yoqimli) – hush (insonning sezish, idrok etish qobiliyati).* “Paronimlarga asoslangan uslubiy figura paronomaziya deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziya ifodalilik, ohangdorlikka erishish, komik effekt yaratish, so‘z o‘yini hosil qilish kabi maqsadlarda foydalaniladi”. [5-80] Badiiy adabiyotda o‘xshash so‘z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma‘naviy hamda lisoniy saviyasini ko‘rsatish uchun ham ishlatiladi. Quydagi parchada paronimlardan komik effekt yaratish maqsadida foydalanilgan. Qahramon kompot (mevalardan tayyorlanadigan sharbat) va kompost (chiqindilardan achitib tayyorlanadigan organik o‘g‘it) paronim so‘zlarining ma‘nosini bilmaganligi uchun kulgili vaziyatga tushadi:

- *O‘rtoq agronom sizdan bir iltimosim bor, - deb qoldi.*

- *Agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a‘zolariga kompost to‘g‘risida gapirib bersangiz. Bular haligacha hech narsa tushunmas ekan.*

- *Marhamat, - dedim-da, u yoq – bu yoqqa qarab olgach, leksiya o‘qishga tushib ketdim:*

- *O‘rtoqlar, kompot juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shuncha shirin bo‘ladi.* (X.To‘xtaboyev)  
Yuqoridagi parchada paronomaziya ikkita o‘xshash so‘zning qahramon tarafidan



farqlanmasligi, ya'ni ikkita alohida soʻz maʼnolarining qorishtirilishi natijasida kulgili holat yuzaga kelgan.

Misollar tahlilidan koʻrinib turibdiki, sinonim, omonim, antonim va paronimlar ekspressivlikni ifodalashda, subyektiv munosabat bildirishda, umuman uslubiy vazifani bajarishda katta ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Oʻzbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Boboyeva S. Hamid Olimjon poeziyasining leksik xususiyatlari. –Toshkent: Fan, 1989.
3. Гельблү. Я.И. Способы выражения антоничности в современном немецком языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1965. – 22 с.
4. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati (Hojiyev A., Nurmonov A. va boshqalar). – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. – Toshkent: OʻME 2002.
6. Maksumova S. Badiiy matnning lingvopragmatik xususiyatlari Toshkent: Fan va texnologiya 2015.
7. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 123 b.
8. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf sheʼriyati lingvopoetikasi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2007. – 25 b.
9. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1-q. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980.
10. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H. Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.